

**BO'LAJAK TARBIYACHINING KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA
TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Artikbayeva Aziza Abror qizi,

*University of Business and Science (UBS) ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası o'qituvchisi
azizaartikbayeva@gmail.com*

Annotatsiya. *Bo'lajak tarbiyachining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik qobiliyatlari, psixologik tayyorgarligi, muloqot madaniyati hamda bolalar bilan samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachining shaxsiy sifatlari, motivatsiyasi va kasbiy faoliyatga tayyorligini rivojlantirishning zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak tarbiyachi, kasbiy-pedagogik faoliyat, pedagogik-psixologik xususiyatlar, kasbiy kompetensiya, psixologik tayyorgarlik, pedagogik qobiliyat, muloqot madaniyati, motivatsiya, shaxsiy sifatlar, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогико-психологические особенности подготовки будущего воспитателя к профессионально-педагогической деятельности. Освещаются вопросы формирования профессиональной компетентности воспитателя, его педагогических способностей, психологической готовности, культуры общения и навыков эффективной работы с детьми. Также рассматриваются современные методы развития личностных качеств, мотивации и готовности будущего воспитателя к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *будущий воспитатель, профессионально-педагогическая деятельность, педагогико-психологические особенности, профессиональная компетентность, психологическая подготовка, педагогические способности, культура общения, мотивация, личностные качества, профессиональная подготовка.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of preparing future educators for professional pedagogical activity. It highlights the formation of professional competence, pedagogical abilities, psychological readiness, communication culture, and effective skills for working with children. The article also examines modern methods of developing personal qualities, motivation, and readiness of future educators for professional activity.*

Keywords: *future educator, professional pedagogical activity, pedagogical and psychological characteristics, professional competence, psychological readiness, pedagogical abilities, communication culture, motivation, personal qualities, professional training.*

Kirish. *Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti sharoitida jamiyatning ko'p tarmoqli tizimlarining takomillashuvi oliy ma'lumotli mutaxassis tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga yuqori sifat va kompetensiya talablari qo'yilishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'limning asosiy maqsadi bo'lajak tarbiyachilarni nafaqat kasbiy faoliyatga sifatli tarbiyachi qilib tayyorlash, balki ularga hayotni barcha jabhalariga har tomonlama tayyorlash, har birining salohiyati, qobiliyatlari va ehtiyojlarini ochib berish va ularni ro'yobga chiqarish uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlashdan ham iborat. O'quv faoliyatidan mustaqil ravishda ish boshlashga o'tish ma'lum bir vaqtni talab qiladi,*

ushbu davrda kasb talablari bo‘lgan asosiy kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalarni anglab yetish jarayoni sodir bo‘ladi.[1]

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy amaliyotning barcha yo‘nalishlari uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda, butun jamiyat hayotini oshkoralashtirish va tarbiyachi parvarlashtirish sharoitida har bir shaxsning o‘ziga xos ta‘lim ehtiyojlari, ya‘ni umumta‘lim, kasbiy, umummadaniy va boshqalar oshib bormoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini, kasbiy mahoratini va ijtimoiy kasbiy-pedagogik moslashuvi samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilarning tarbiyachiga xos kompetensiyalar asosida kasbiy faoliyat unumdorligiga erishilgan natijalari va uning strategik xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir.[2,4]

Talabalarda kasbiy mahoratning shakllanishi ularning shaxsiy sifatlari va faoliyat tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bo‘lg‘usi tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash kasbiy kompetensiya, kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi bilan amalga oshadi. Talabalarning kasbiy kompetentlik tarkibiga kasbiy sifatlari, individual xususiyatlar, kasbiy motivlar, qiziqish va moyillik kiradi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi kasbga sodiqlik va kasbiy tayyorgarlikdan boshlanadi. Bo‘lajak tarbiyachilar o‘z kasbini sevishi va o‘z kasbiga nisbatan mas‘uliyat bilan yondashishida unga olgan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalari asqotadi, maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish uchun tinmay o‘z ustida ishlashi va kreativ g‘oyalardan foydalanishi, hamda innovatsion, integrativ metod va texnologiyalardan samarali foydalana olishi lozim. Kasbiy kompetentlik, bilim, ko‘nikma, malaka mehnat faoliyatini to‘la-to‘kis amalga oshirishda muhim xususiyatlar deyish mumkin.

Motivatsiya talabalarda kasbiy ko‘nikma va kompetensiyani shakllanishida asosiy negiz bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda shakllangan motivatsiya maktabgacha ta‘limning samarali faoliyatini kafolatlaydi. Ularda innovatsion faoliyat hamda pedagogik improvizatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa. Kasbiy faoliyat davomida kasbiy motivatsiyani shakllantirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tashkil etilgan mexanizmlar talabalarda kasbiy faoliyatga qiziqishni yanada oshiradi va mustahkamlaydi. Bu orqali talabalar motivlar ijtimoiy zarurat ekanligini mas‘uliyat bilan anglaydilar, o‘z kasbini puxta egallashga harakat qiladilar.

Talabalar o‘quv mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiya va interaktiv metodlarni qo‘llash, pedagogik amaliyotlarni metodik jihatdan to‘liq ta‘minlash talab qilinadi. Bundan tashqari, tajriba sinov davrida talabalarda motivatsiyaning shakllanishi tanlagan kasbiga ijobiy munosabatni yuzaga keltirishi asoslandi. Maktabgacha ta‘lim

tashkilotlarida mashg`ulotlarni olib borish jarayonida kasbiy va shahsiy qobiliyatlarini namoyon etadilar, bu sifatlarni rivojlantirishda ularni kasbga qiziqishining mavjudligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Kasbiy motivatsiya talabalarning axloqiy fazilatlari doirasida ham ko`rib chiqilishi mumkin. Bundan tashqari, talabalarda kasbiy motivatsiyaning asosida qadriyatlar tizimi shakllanish jarayoni boshlanadi. [4,5]

Bo`lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablarga moslashtirishda innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatda raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish, xususan raqamli ta`lim vositalari, multimedia resurslari, internet-platformalar, interaktiv va interfaol metod hamda texnologiyalardan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Bu yondashuv o`quv jarayonining didaktik samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlash va kreativ kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, ta`lim oluvchilarning individual o`zlashtirish tezligini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta`lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-2707-sonli qarori.
2. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta`lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. ped. fan. dok. ... avtoref. – Toshkent, 2019. – 58 b.
3. Гуревич П.С. Теория и практика психоанализа. М.; Воронеж, 2000.
4. Давидчук А.Н. Обучение и игра. методическое пособие. - М., Мозаика-Синтез, 2004. -168 с.
5. Ивакина И.О. Руководство творческими сюжетно-ролевыми играми дошкольников. — Пенза., 1995. - 154 с.